



Mahmudkhoja Behbudiy's debate with Rauf Muzaffarzoda concerning language

Sayyora KHALIMOVA¹

Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

15 March 2025

Keywords:

national language,
orthography,
public education,
language,
press,
journal.

ABSTRACT

This scientific article analyzes the debate between Mahmudkhoja Behbudiy, a prominent representative of the Jadid enlightenment movement, and the Tatar publicist Rauf Muzaffarzoda regarding the national language and spelling. They considered the language of the press as the language of the nation and its general classroom, fighting for the purity of the Uzbek literary language even during the difficult times when tsarist oppressive policies were at their peak. In particular, M. Behbudiy's valuable thoughts on the national language gave a great impetus to the formation of the language and style of publications of that time.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp135-140>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mahmudxo'ja Behbudiyning Rauf Muzaffarzoda bilan til xususidagi bahsi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

milliy til,
imlo,
chorizm,
umumdarsxona,
lison,
matbuot,
majalla,
jarida.

Mazkur ilmiy maqolada jadid ma'rifatparvarlik harakatining yirik namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy va tatar publitsisti Rauf Muzaffarzoda o'rtasidagi milliy til va imlo xususidagi bahsi tahlil etilgan. Ular matbuot tilini millatning tili, umumdarsxonasi deya, chor mustabidlik siyosati avj olgan og'ir damlarda ham o'zbek adabiy tilining sofliги uchun kurashganlar. Ayniqsa, M. Behbudiyning milliy tili xususidagi qimmatli fikrlari o'sha davr nashrlarini til va uslubini shakllanishiga katta turtki bergan.

¹ Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan. E-mail: sayyorahalimova1971@gmail.com

Спор Махмудходжи Бехбуди с Рауфом Музаффарзада о языке

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

национальный язык,
орфография,
царизм,
народное образование,
язык,
пресса,
журнал.

В статье рассматривается полемика между видным представителем джадидистского просветительского движения Махмудходжой Бехбуди и татарским публицистом Рауфом Музаффарзадой, посвящённая вопросам национального языка и орфографии. Оба мыслителя рассматривали язык печати как язык нации и всеобщего образования, отстаивая идею чистоты и самобытности узбекского литературного языка в условиях усиленного давления царской власти. Особое внимание уделяется взглядам М. Бехбуди, чьи идеи сыграли значительную роль в становлении языка и стиля периодических изданий начала XX века.

KIRISH

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asr boshlari, xususan, 1913–1914-yillar Turkistonda chor mustabidlik zulmining kuchayishi, ayni paytda milliy ziyolilarning mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida jiplashish jarayoni ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, XX asrning birinchi o'n yilligida Turkistonning ijtimoiy hayotida bir qator o'zgarishlar yuzaga keldi: savdo va sanoat rivojlana boshladi. Temur yo'l, pochta-telegraf tashkil topdi, matbuot nashriyot ishlari, teatr va boshqa muassasalar taraqqiy topdi. Bu jarayon, tabiiyki, o'zbek adabiy tilining yangi so'z va iboralar bilan boyishiga olib keldi. Shu bilan birga ruscha, tatarcha, turkcha, ozarbayjoncha unsurlar mahalliy matbuot tiliga kirib bordi.

MAVZUGA OID ADABIYATLARNING TAHLILI

Jumladan, 1914–1915-yillarda Toshkentda chop etilgan “Sadoi Turkiston” gazetasi ham shu jarayondan chetda qolmadi. Gazetaning butun faoliyati davomida 80 dan ortiq ruscha so'zlar ishlatilgan. Jumladan: polisiya, ko'piya, zagranitsa, zakun, ukaz, sovushchaniya, siezd, nolug, otsinka, chilen, afitser, uchitel, bankurut, novometodniy, narodniy, kuvartir va hakazo ruscha so'zlarni ishlatilganini ko'rish mumkin. Ma'lumki, o'sha paytlarda “Tarjimon”, “Vaqt” kabi gazetalar Turkistonda ham keng tarqalgan edi. “Sadoi Turkiston”ning har bir sahifasida ushbu gazetalardan olingan xabar va yangiliklar berib berib borilgan. Chunonchi, “Bolqon yana qon istayur” (18-son), “Bolgariyaning ishonduvchi” (29-son), “Maktab tamom etuv” (20-son), “Qoratog'dan muhojirlar keluv” (19-son) va hokazo. Shu bilan birga, Turkistonda matbuot, teatr tashkil qilishda, yangi usul maktablari ochishda tatarlarning bevosita ishtiroki o'sha davr adabiy tiliga ham kuchli ta'sir qilgan. “Sadoi Turkiston” gazetasining eng faol muharrirlaridan biri Rauf Muzaffarzoda – tatar millatiga mansub bo'lgan. Uning maqolalarida o'z ona tilining unsurlari ko'p uchraydi. Hatto gazetada bosilgan maqolalarning sarlavhalar uslubida ham buni aniq ko'rish mumkin. “Hozirgi madrasalarimizda o'quv” (20-son), “Bizda o'quv va o'qituv” (8-son), “Yubileyg'a hozirlanuv” (13-son), “Milliy tashbirlar” (7-son), “To'y masalasina” (6-son), “Gosudarstvenniy dumada mol so'yuv masalasi” (1-son) va boshqalar. Rauf Muzaffarzodaning “Turkistonda tijorat va ziroat” maqolasidagi: “Chet mamlakatlaridan meva olishqa ehtiyoj qolmayajaq va miliyunlarcha pullar o'z

qissamizga kirajakdur” jumalari o’sha davr tili va uslubini yaqqol ko’rsatadi. Ammo Rauf Muzaffarzoda publisistik faoliyati davomida milliy til masalasiga oid ko’plab maqolalar yozgan. U “Sadoi Turkiston” tahririyatiga ishga kelgan paytda endigina 25 bahorni qarshilagan navqiron yigit edi. Dastlab u tahririyat kotibi vazifasida xizmat qiladi. A. Muzaffarov tahririyat kotibi zimmasidagi mashaqqatli yumushlar bilan o’ralashib qolmay, sermahsul ijodiy faoliyat bilan ham shug’ullangan. “Sadoi Turkiston” sahifalarida uning qalamiga mansub 40 dan ortiq maqola mavjud. Gazetaning qariyb har bir sonida “Rauf Muzaffarzoda”, “A. Muzaffarov” imzolari bilan maqolalari chop etilgan. Ular muallifning o’tkir zehnli, bilimdon, muammolarni teran fahmlovchi, e’tiqodi kuchli publisist bo’lganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, uning “Til va din” maqolasi inson kamolotida birinchi ruhiy ozuqa til orqali qalbgga jo bo’lishi haqida bahs yuritadi. “Demakki, – deydi muallif – har narsa kibi din ham insonning ruhiga o’z tili, o’z adabiyoti ila ko’broq ta’sir qiladi. Bu kundan e’tiboran til masalasiga ahamiyat bera boshlamak va bu xususda muhim maqola va risolalar nashr etmak ahli qalam vazifasidur” [1]. Muallif ziyolilarni milliy til sofligini saqlab qolishda namuna bo’lishga, tilga oid darsliklar yozishga chorlaydi: “Ilmiy va fan kitoblari yozmak matbuot, adabiyotni vujudga chiqarmak uchun eng birinchi qurol ona tilidur” [2].

Ma’lumki, o’sha paytlarda madrasalarda forscha, arabcha kitoblar ko’proq o’qitilardi. Boisi bunday bilim dargohlarida asosan din ilmidan saboq berilgan. Shuning uchun ham bu kitoblarga ehtiyoj katta bo’lgan. Arab va fors tillarini bilish fazilat hisoblanardi. Shu tariqa turkiy tilga e’tibor zarur darajasida emas edi. Ko’pgina turkiy so’zlar o’rniga ajnabiy so’zlar qo’llanilardi. Shu bois, “So’zlaganda, yozganda ajnabiy so’zlarni aralashtirish – bu jaholatdur” – deb yozadi R. Muzaffarzoda [3]. U xalq ruhiyatini uyg’otib olish uchun yozilayotgan asarlar, chop etilayotgan matbuot nashrlari sodda va tushunarli bo’lishi lozim degan talabni qo’ydi. Bu katta bahsga aylanib, “Oyina” jurnalida Mahmudxo’ja Behbudiy Rauf Muzaffarzoda qarashlarini chuqur tahlil etadi [4]. Jumladan, M.Behbudiy shunday yozadi: “Sadoi Turkiston” rafiqimizda til masalasida maqolalar yozilmoqdadir. Ba’zi afandilar mehmonni “qo’noq” deyilsun deb taklif etarlar. Holbuki qo’noq deganda, bir turk fahmlaydur. Mehmon deganda, turk fahmlagani ustida, yana bir forsiy musulmon qarindoshimizda anglaydur. “Tilimizdan forsiy va arabiyini quvayluk”, bu ko’p yengil orzu, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandur. Masalan, muning tarafdori bo’lgan mo’tabar “Sadoi Turkiston”ni “Turk eli dovushi” lozim bo’lur. Turkistonni “Turk eli” yoxud “Turk yeri” yozmoq kerak bo’lur”. Ulug’ ma’rifatparvar Rauf Muzaffarzodaning arabiy va forsiy so’zlarni ajnabiy deb ta’rif berishiga norozilik bildiradi. “Muhtaram A. Muzaffar afandi 63-raqam “Sadoi Turkiston”da handasadagi arabiy istiloh va ismlarg’a turkiy muqobillar ko’rsaturlar. Anga qaraganda, handasani o’ziga “andoza” forsiyning muarrabi va yoinki buzulg’onidur. Anga ham turkcha va barcha ulum va funun va Qur’ong’a ham turkcha ism qo’ymoq lozim kelur. Holbuki, ba’zi bir nimarsani ismi, lug’atan musammasining ma’nosig’a dalolat qilmay, ammo istilohan, ta’liman va tarixan va yoinki zamonan anga ism va alam bo’lub qolgandur. Chunonchi “vohid qiyosi” ma’noyi fanniysini “solishtirish o’lchovi” ado etmaydur. Bo’lsa-bo’lmasa, bu bir istiloh bo’lub, “solishtirish o’lchovi”, ya’ni vohid qiyosi deyilmaguncha fahmlanilmas. Avom uchun bu so’zlar yozilaturgon bo’lsa, ul ikkisini-da fahmlamaydur. Agarda maktab talabalari uchun bo’lsa, Turkistonda yo’q turkiy handasa kitobimizdan muqaddam bir-da loyatino ho yangi istilohi turkiya lug’ati chiqormoq lozim kelur” [5].

Mahmudxo'ja Behbudiy matbuot tilidan forsiy, arabiy so'zlarni olib tashlash yoki ularni tarjimalarini ommaga havola etishni foydasiz bir harakat deb baholaydi. Ikkinchidan "Sadoi Turkiston" gazetasi tilida tatar tili va uslubi ko'p qo'llanayotganligini tanqid qiladi. "Sadoi Turkiston"ning 64-raqamindagi "Til masalasi"da "Kurrai arzda yashamakda bo'lgan har millatni o'ziga maxsus bir lisoni milliysi vordur" jumalarni bir oz turkcha yozmoq kerakligig'a mashvarat bermoq lozim. Ammo butun fanniy va ilmiy va diniy istiloh va iboratlarga muqobil turkchadan ism ta'yin qilmoq fikrig'a cho'mmoq o'zni charchatib va matbuotni zoe' qilmoqdan boshqa nimarsa emasdur" [6]. R. Muzaffarzodaning ona tili muammolari yuzasidan chiqishlaridan keyin Turkistonning ko'pgina shaharlaridan tahririyatga ushbu masalaga munosabat bildirilgan maktublar ham kelgan. Jumladan, Muharram "Namangoniy" qalamiga mansub "Til masalasi" [7] sarlavhali maktubida "lison masalasi hayot va mamot masalasi" deya ta'riflanadi. Maktub muallifining fikricha, turkiy qavmlar tushunadigan o'rta (umumiy) bir tilning bo'lishi foydalidir. Shundagina ular bir-birlarining matbuoti va adabiyotidan bemalol bahramand bo'ladi". Bu kabi bahslar o'sha davr milliy nashrlarida keng avj olgan. Ammo M. Behbudiyning ushbu xulosasi, milliy til xususida to'g'ri yo'lni belgilab bergan edi. "Xulosa fikrimiz shuki, yalg'uz turkcha so'ylamak va yozmoq abadan mumkin yo'q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni oz yozayluq. Barcha ilmu fan istiloh va lug'atlarig'a turkchadan muqobil oxtarib vaqtni zoe etmayluk. Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmiy va fanniy kitoblarni anglamoqg'a sa'y va g'ayrat etayluk. Kellar zamon uchun hozirlanayluk" [8]. "Sadoi Turkiston" gazetasi va "Oyina" jurnali doimiy hamkor va hammaslak bo'lgan. Jumladan: "Oyina" jurnalining reklamasi gazetaning bir necha sonlarida muntazam berib borilgan. 50-sonida chop etilgan reklamada shunday satrlar bor: "Turkiy va forsiy, o'rta shevada, ba'zan ruscha, har ishdan bohis musavvar haftalik majallai islomiyadur. Hozirda Turkistonda birdan – bir majalla bo'lg'onligi uchun bunga mushtariy bo'lmak o'qishga iqtidori bo'lg'on har kimga milliy bir qarzdur" [9]. Bu kabi hamkorlik, shu bilan birga milliy nashrlar orasidagi sog'lom bahs-munozaralar o'sha davr publisistikasining o'ziga xos xususiyatini namoyon etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "Sadoi Turkiston", "Oyina" kabi milliy nashrlar matbuotni "millatning umumdarsxonasi, savodxonlik maktabi" deb bilishgan. Xalqda ruhsizlik, fikrsizlik jaholat va eski odatlar hukm surayotgan bir paytda, ularga yo'lboshchi bo'lishga harakat qildi. Jarida, majalla so'zlariga nopisandlik bilan qarayotgan, arzimagan voqealarni yozib maktub yo'llayotgan gazetxonlarni tiyrakroq bo'lishga, millat manfaatlarini yuksak qo'yishga da'vat qiladi. Bunday da'vatlar "Idoradan javoblar" ruknlarida chop etib borilgan. Chunonchi "Sadoi Turkiston" gazetasi 56-sonida yozadi: "Imzosiz, chuvalangan, ma'nosiz va uzun maktublarning joyi jarida emas, balki sabatdur", deya keskin talab qo'yilgan. [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jadid matbuoti haqidagi dastlabki ma'lumotlar orasida Z. Said, A. Avloniy, N. Abduazizova, M. Xudoyqulov, B. Do'stqoraev qalamiga mansub asarlar alohida ahamiyatga ega [11]. Mazkur asarlarda XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda yo'lga qo'yilgan milliy nashrlar tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, professor Boybo'ta Do'stqoraevning "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" darsligi va yosh olimlarning Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Asadullaxo'jaev, Cho'lpon, Hoji Muin va boshqa jadidlarning muharrirlik va publisistik faoliyati bo'yicha dissertasiyalar himoya qilindi. "Al-Isloh", "Oyina", "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnallari, "Sadoi Turkiston" gazetasi bo'yicha alohida tadqiqotlar yaratildi. Filologiya fanlari nomzodi, dosent

B. Do'stqoraevning "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" darsligi asl manbalarga asoslanganligi va tahlillarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ammo aynan jadid publisistlarining tili va uslubi alohida to'liq tadqiq etilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadid ma'rifatparvarlari milliy til va imlo masalasida ham jiddiy kamchilik va muammolarni keskin matbuot orqali keskin tahlil etishgan. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Fitrat bu xususda bir qator maqolalar yozib, jamoatchilikni bahs-munozaralarga chorlagan. M. Behbudiy maqolalaridan biriga "Har millat o'z tili ila faxr etar" degan hikmatomuz iborani sarlavha qilib qo'yarkan, faqat g'ururlanish, iftixor hissi yetishmasligini, "faxr etmoq" bilan birga tilning muhofaza choralari ko'rish lozimligini ta'kidlaydi [12]. Mahmudxo'ja Behbudiy davr tilining murakkabligini, eski o'zbek adabiy tili, umumturkiy til va hozirgi o'zbek tiliga xos birliklarning aralash holda qo'llanishini o'z vaqtida to'g'ri ang'lay oldi va bundan to'g'ri xulosa chiqaradi. Xulosa fikrimiz shuki, yalg'uz turkcha so'ylamak va yozmoq abadan mumkin yo'q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni oz yozayluq. Barcha ilmu fan istiloh va lug'atlarig'a turkchadan muqobil oxtarib vaqtni zoe etmayluk. Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmiy va fanniy kitoblarni anglamoqg'a sa'y va g'ayrat etayluk. Kelar zamon uchun hozirlanayluk [13].

Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish lozim: "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak [14] Shubhasiz, til millatning ko'zgusi, madaniyati, dunyoda borligining go'zal ifodasidir. Ayniqsa, milliy matbuotimiz tili sof, ravon va boy bo'lmog'i lozim. Chunki, matbuot – xalq uchun savodxonlik maktabidir. Shu bois ham Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadid publisistlari aynan mana shu ilg'or konsepsiya asosida millatning ertangi taqdiri va istiqboli, tili va adabiyoti uchun kurashgan. Biz ulardan ibrat olmog'imiz lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

"Oyina" jurnali, "Sadoyi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" gazetalari o'z davrining muhim muammo va kamchiliklarini tahlil etib, keng jamoatchilik e'tiboriga havola etgan. Xususan, XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat tufayli til va imlo masalasidagi muammolar jadid ziyolilarini tashvishga solgan. Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiyning ilg'or qarashlari hamon o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q: "Hech bir firqa va yo lahjaning avom tili matbuotg'a kirmaydur. Kirsada, maktab risolalarig'a va fanniy kitoblarg'a kirmaydur. Azbaski, fanniy, adab, ta'lim, tarbiya va diniy kitoblarni sirf avom tilig'a yozmoq mumkin emasdur" [15]. Bu fikrlar, ilg'or g'oyalarni o'rganish, yosh avlodda ona tiliga muhabbat ruhini tarbiyalash, tafakkuriga singdirish va amaliyotga tadbiiq etish jamiyatimizni rivoji, millatning savodxonlik darajasini va tafakkur salohiyatini oshishra xizmat qiladi. Bugungi matbuotimiz tilida va uslubida uchrayotgan kamchiliklarni kuzatar ekanmiz, bundan bir asr oldin ulug' ma'rifatparvarlarimizning matbuot tili, milliy til xususidagi yuksak talablarini yodga olaylik. Zero, milliy til – har bir millatning ko'zgusi va ma'rifati va ma'naviyatidan darak beradi. Biz ulardan ibrat olmog'imiz lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Sadoi Turkiston", 1914, 4 iyul.
2. "Sadoi Turkiston", 1914, 5 avgust.

3. “Sadoi Turkiston”, 1915, 23 fevral.
4. “Oyina”, 1915, 11-12 sonlar
5. “Oyina”, 1915 yil, 12-son
6. “Oyina”, 1915 yil, 12-son.
7. Sadoi Turkiston. 1915, 20 mart.
8. “Oyina”, 1915 yil, 12-son.
9. “Sadoi Turkiston”, 1914, 3 dekabr.
10. “Sadoi Turkiston”, 1915, 21 yanvar.
11. Said Z. O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar./1870-1927/.Toshkent-Samarqand: O‘zbekiston, 1927.36-b.
12. Avloniy A. Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi.//Turkiston,1924 yil 24 iyun.
13. Abduazizova N. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. T:. Sharq, 2002.
14. Do‘stqoraev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. T: Ma’naviyat, 2009 .
15. “Oyina”, 1914, 35- son.
16. “Oyina” jurnali, 1915 yil, 11-12-sonlar. 274-277, 306-311-betlar.
17. <https://president.uz/uz/lists/view/2953>.(Murojaat vaqti: 21.05.2025.soat 09.20)
18. M.Behbudiy. “Til masalasi”.“Oyina” jurnali, 1915 yil, 11-12-sonlar. 274-277, 306-311-betlar.